

OLDI-SOTDI
SHARTNOMA № 24015

30-may 2022-yil

Farg'ona shahar

Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari D.Xodjayeva bundan buyon bir tomondan «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan «F.A.H.R.» XK rahbari **H.F.Asatullayev** nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

1.1. «Sotuvchi» Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga xo'jalik mollari sotib olish uchun, «Buyurtmachi» esa olib kelingan mahsulot uchun to'lovlarni belgilangan tartibda oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1	El.Shit.Shu 1500*800*400	Dona	20	2 295 000	45 900 000
2	Metallicheskya rukava d25	Dona	250	12 300	3 075 000
3	Transformator 100/5A	Metr	36	23 600	849 600
4	Tokovoy preobrazetel 0-5 ma	Dona	12	870 000	10 440 000
5	BP 12v	Dona	12	65 000	780 000
6	Kabel ABBG 2*4	Metr	1 800	4400	7 920 000
7	Kabel ABBG 1*10	Metr	60	13 550	813 000
8	Kabel ABBG 4*16	Metr	60	17 973	1 078 380
9	Kabel ABBG 4*25	Metr	60	27 977	1 678 620
10	Projektor LED 100v	Dona	100	291 800	29 180 000
11	Promishlenniy relye 5 A	Dona	48	23 140	1 110 720
12	Puskateli elektromagninyi 185 A	Dona	10	1 196 000	11 960 000
13	Avtomat viklychatel 250-400	Dona	30	310 000	9 300 000
14	Rubilnik 250A	Dona	20	610 000	12 200 000
	Jami:				136 285 320

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi 136 285 320 so'm (bir yuz o'ttiz olti million ikki yuz sakson besh ming uch yuz yigirma) so'm.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Buyurtmachi» ko'rsatilgan xizmatning 30 % (foiz) Miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70% (foiz) qismini «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob –fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Mahsulotlar «Sotuvchi» ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan holda qo'shimcha belgilanadi.

IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 10 kun muddat ichida «Buyurtmachi» ga bajarilgan ishlarni ko'rsatishi shart.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Sotuvchi» ning haquq va majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi» ga xizmat ko'rsatish;

- Shartnomaning shartlari «Buyurtmachi» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan xizmatni to'xtatib qo'yish huquqiga ega:

- Tegishli darajada xizmat ko'rsatilgnadan so'ng, sifatli bo'lmagan xizmatni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan Shartnomaning umumiy so'mmasidan sifatli bo'lmagan xizmat bahosini qaytarib berish. Sifatsiz ishlar haqida xizmat ko'rsatuvchi xabarnoma olgandan so'ng tomonlar o'rtasida sifatsiz ishlarni bartaraf qilish bo'yicha o'zaro dalolatnoma tuziladi.

- «Sotuvchi» yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Buyurtmachi» ning huquq va majburiyatlari:

- «Buyurtmachi» Shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu Shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'zvaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida Tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 ishkun ichida «Xizmat ko'rsatuvchi » ni ogohlantirish kerak.

- To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida Shuningdek ushbu Shartnomada nazarda to'tilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. «Sotuvchi» tomonidan «Buyurtmachi» ga Tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,4% (foiz) miqdorida «Buyurtmachiga» ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 % (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20% miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Buyurtmachi» tomonidan olingan Tovar yoki mahsulot uchun to'lovlar o'zvaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,01% (foiz) miqdorida «Sotuvchi» ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan so'mmaning 50 % (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan Tovar mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan anadi.

VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmask uch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi xolatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, Shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xarqanday xolatlar Tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, Shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

VIII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar «Buyurtmachi» joylashgan iqtisodiy sud orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR.

9.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishi boladilar.

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va daqilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki harqanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

9.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

9.5. Trafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarliliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

X. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

10.1. Ushbu shartnoma 2022 yil 30-may 2022-yil 31-dekabrgacha 2 nusxada tuzildi.

10.2. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

XI. QO'SHIMCHA SHARTLAR

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

«F.A.H.R.» X\K	“Farg’ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi”
Manzil: Fag’ona shahar Tumaris ko’chasi-56 yu	Manzil: Farg’ona shahar Mustaqilik ko’chasi 3-uy
Tel/faks: 998 55 801 7000	Tel/faks: +99890 232 70 07
X/r: 20208000903988645001	INN 200 145 479 OKOHX 90290
Ipoteka bank ATB Fargona filiali	X/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO: 00544	Markaziy bank Toshkent XKKM
STIR: 202815971	MFO: 00014
QQS to’lovchining kodi:	STIR: 201 122 919

Direktor



H.F.Asatullayev

Rahbar



D.Xodjayeve

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ GW0583415420

- 1. Loyiha turi:** Oldi-sotdi shartnoma №24015-son
- 2. Loyiyaning nomi:** Obodonlashtirish boshqarmasiga xo'jalik mollari sotib olish haqida. ("F.A.X.R." XK)

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 30-may kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 30-may kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA

Loyiha amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurtituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



Mirsoliyev.Z

2022-yil 31-may